












Dupli Checker Plagiarism Report

Originality Report

 13% Plagiarized Content	 87% Unique Content	1848 Words	18306 Characters
--	---	----------------------	----------------------------

Primary Sources

1	https://davaktiv.uz/oz/news/the-unifie... ... son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini...	 0.61 %
2	https://lex.uz/uz/docs/-6221502 ... imkoniyatlaridan sohada samarali foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: 1. Quyidagilarni nazarda tutuvc...	 0.61 %
3	https://azkurs.org/axborot-kommunika... Apr 16, 2023 · Masofaviy ta'limning maqsadi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida...	 0.61 %
4	Plagiarized Content Link WEBtomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga...	 0.61 %
5	Plagiarized Content Link WEBta'lim va tarbiya shakllari hamda uslublarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish...	 0.61 %
6	Plagiarized Content Link WEBmaktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli o'qatlanishini tashkil etilishiga oid...	 0.61 %
7	https://www.lex.uz/docs/-5090241 Nov 10, 2020 — 2020-yil 10-noyabr., PQ-4887-son. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-noyabrdagi PQ-4887-so...	 0.61 %
8	https://yuz.uz/uz/news/aholining-sogl... O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholining sog'lom o'qatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar...	 0.61 %
9	https://lex.uz/docs/-5434358 May 25, 2021 — (1-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-iyundagi PF-96-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini...	 0.61 %

10	https://lex.uz/uz/docs/-5482776 Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlanirish tizimini takomillashtirish hamda bu borada outsorsing usulida...	0.61 %
11	Plagiarized Content Link WEB · Ma'lumot uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarning xavfsiz va sog'lom ovqatlanishini...	0.61 %
12	https://www.gejournal.net/index.php/IJ... by S Abbosbek · 2022 — ... 10'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son....	0.61 %
13	https://lex.uz/docs/-4441105?ONDATE... O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.07.2019 yildagi 626-son ... to'g'risida" 2017-yil 19-iyuldagi 528...	0.61 %
14	https://lex.uz/uz/docs/-5534107 O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashk...	0.61 %
15	https://t.me/s/mdokanal?before=11143 ... etish, yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi hamda ovqatdan zaharlanishlarning oldini olish choralarini...	0.61 %
16	https://ojs.nordicun.uz/index.php/nord... maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Buning natijasida qisqa muddatda maktabgacha...	0.61 %
17	https://uzlidep.uz/uz/positionparty/72 Dec 20, 2017 — ... sog'lom ovqatlanirish va ularga berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta'minlash maqsadida 2018 yilda...	0.61 %
18	https://api.scienceweb.uz/storage/publ... 1.Tarix o'qitishda innovatsion texnologiyalar fanini o'qitishning maqsad va ... bir dars mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos...	0.61 %
19	https://old.gov.uz/oz/news/view/21309 ... sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya qilish, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi tadbirlar...	1.23 %
20	https://zenodo.org/records/10353172 ... 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. lex.uz 2. Ўзбекистонда таълим: талаб ва...	0.61 %

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA "MAKTABGACHA TA'LIMDA
SOG'LOM OVQATLANTIRISH TEXNOLOGIYASI" FANINING
MASOFAVIY (ZOOM) O'QITISH MEXANIZMLARI**

Muallif: Hakimova Shohida Jo'rayevna,
Xalqaro Nordik universiteti Psixologiya va
maktabgacha ta'lim kafedrası kat.o'qit.
E-mail: hakimova_shohida@mail.ru
Author: Shohida Jorayevna Hakimova,
Senior Lecturer, Department of Psychology
and Preschool Education, Nordic
International University.

Annotatsiya

Maqolada Xalqaro Nordik universiteti sirtqi guruh talabalariga "Maktabgacha sog'lom ovqatlantirishni tashkillashtirish texnologiyasi" fanini masofaviy ta'lim shaklida o'qitishda qo'llanilgan innovatsion usullar va ularning amaliy imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, oliy ta'limda masofaviy o'qitish, masofaviy o'qitish mexanizmlari, onlayn dasturlar, onlayn ta'lim, sog'lom ovqatlantirish, ratsion, sanitariya.

Abstract

The article discusses the innovative methods and their practical possibilities used in the distance teaching of "Technology of organization of healthy pre-school feeding" to students of the correspondence groups of the Nordic International University.

Key words: distance teaching, distance learning in higher education, distance teaching mechanisms, online programs, online education, healthy nutrition, diet, sanitation.

Kirish

Masofaviy ta'lim bu universitet yoki biror ta'lim dargohida yuzma-yuz bo'lib, dars o'tish talab qilmaydigan o'rganish usuli tushuniladi. Barcha o'quv materiallari va ma'ruzalar onlayn tarzda yetkaziladi. Talabalar kurs olayotganda o'z uylarida turib darslarda bemalol ishtirok etishlari yoki bo'lmasa keyinchalik dars jarayonlarini kuzatishlari mumkin. Masofaviy ta'limni sinxron tarzda yoki asinxron olishlari mumkin.

Sinxron masofaviy ta'lim ma'ruzalarni real vaqt rejimida o'tkazishni anglatadi. Tabalaringiz bilan jonli muloqotda bo'lasiz. Ushbu o'quv modelida zoom va boshqa platformalarga o'xshash texnologiyalarga ehtiyoj seziladi. Sinxron masofaviy ta'lim o'qituvchilar va talabalar bilan yuzma-yuz muloqot qilish imkonini beradi. Biroq, buning ba'zi texnik hamda elektr va internet tezligi bilan bog'liq muammolari kuzatiladi.

Asinxron masofaviy ta'limda talabalar o'quv dasturini o'zining xoxlagan kun tartibi asosida ishlashi mumkin.

Masofaviy ta'lim ko'plab talabalar va muassasalar uchun umumiy tanlovga aylanib bormoqda. Bu ayniqsa pandemiya davrida masofaviy ta'lim orqali o'qitishning imkoniyatlari kengligi hamda qulayligi haqida o'ylab ko'rishga turtki bo'ldi. Biz quyidagi maqola orqali masofaviy ta'limda turli innovatsiyalardan foydalanish yo'l-yo'riqlari haqida yoritib, talabalarga o'qib-o'rganishi oson va qulay hamda qiziqarli tarzda ma'lumotlar yetkazilishiga harakat qildik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mavzuni o'rganish davomida bir qator me'yoriy hujjatlar, ilmiy maqolalar, tahlil etildi va ular ushbu maqolaning nazariy asoslarini tashkil etdi: Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini^[1] “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan sohada samarali foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori e'lon qilindi. Bunga ko'ra, “Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida”^[2]gi nizom tasdiqlandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida talabani turar joyidan qat'i nazar, unga ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat taqdim etish haqida so'z boradi. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarda maktabgacha ta'lim sohasini ham rivojlantirishga, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar quyidagi qonun va qarorlar asosida ishlab chiqarildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida”^[3]gi qonuni asosida :

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-noyabrdagi PQ-4887-son - “Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”^[4]gi,

-2021-yil 25-maydagi PQ-5124-son “Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”^[5]gi

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyuldagi 626-son “Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlanirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”^[6]gi qarorlariga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarning xavfsiz va sog'lom ovqatlanishini tashkil etish, yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi hamda

^[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.

^[2] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.10.2022 yildagi 559-son.

^[3] Qonunchilik palatasi tomonidan 2015-yil 15-iyulda qabul qilingan Senat tomonidan 2015-yil 6-avgustda ma'qullangan.

^[4] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.11.2020 yildagi PQ-4887-son.

^[5] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.05.2021 yildagi PQ-5124-son.

^[6] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.07.2019 yildagi 626-son.

ovqatdan zaharlanishlarning oldini olish choralari bo'yicha sanitariya qoidalari va normalari ⁷ishlab chiqildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid ishlab chiqilgan sanitariya qoidalari va normalari 5-bob 83 bandedan iborat bo'lib uning maqsadi:

MTTlarida tarbiyalanayotgan bolalarning xavfsiz va sog'lom ovqatlanishini tashkil etish, yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi hamda ovqatdan zaharlanishlarning oldini olishdir.

Buning natijasida qisqa muddatda maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy qismi MTTlarga qamrab olindi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni to'g'ri va sog'lom ovqatlantirish masalasi ham muhim hisoblanadi. Bolalarning bog'cha yoshidan to'g'ri ovqatlanishga odatlanishi ularning fiziologik va anatomik holatiga hamda ulg'ayganda noto'g'ri ovqatlanish oqibatida yuzaga keladigan kasalliklar oldini olish imkonini beradi.

Oliy ta'lim muassasalarida "Maktabgacha ta'limda sog'lom ovqatlantirish texnologiyasi" fanini innovatsion o'qitish usullari nafaqat auditoriyada balki masofaviy ta'limda ham ilg'or texnologiyalarni qo'llash yoki eng so'nggi ta'lim tendentsiyalaridan doimo xabardor bo'lgan holatda ta'lim usullaridan foydalanish orqali darslarni tashkil etish samarali usullardan biridir. Quyidagi maqolada ushbu fanni masofaviy tarzda qanday o'qitish orqali samaraga erishish mumkinligi haqida boradi.

Natija: Tarbiyalanuvchilar ratsioni foydali, mutanosib bo'lishi hamda unda umumiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining yoshlari inobatga olingan holda tuzilishi lozim. MTTlarda sog'lom ovqatlanishni yo'lga qo'yish uchun xavfsiz, to'yimli va sog'lom oziq-ovqat mahsulotlarining doimiy ta'minotini ko'zda tutuvchi standartlarga uzluksiz ravishda amal qilish kerak. Bu boradagi ishlarni takomillashtirish, xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari oshxonalarida **sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya qilish, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi tadbirlar samaradorligini oshirish, ovqat tayyorlash uchun tarbiyachilar, mas'ul xodimlar, hamshiralar, oshpazlar va ombor mudirlarining bilimlarini mustahkamlash tizim mas'ullarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.** Yuqoridagi kasb egalarining asosiy ish joylaridan ajralmagan holda oily ta'limda o'qish imkoniyatlari mavjuddir. Bugungi kunda bir qancha oliy ta'lim muassasalari qatorida Xalqaro Nordik universitetida ham sirtqi ta'lim guruhlar mavjud bo'lib, "Maktabgacha ta'lim" yo'lnalishi talabalariga "Maktabgacha ta'limda sog'lom ovqatlantirish texnologiyasi" fani ham masofaviy o'qitish tashkillashtirilgan.

Quyida "Maktabgacha ta'limda sog'lom ovqatlantirish texnologiyasi" fanini oliy ta'lim muassasalari talabalariga masofaviy o'qitishning zoom platformasi orqali qo'llanilgan mexanizmini tahlil qilamiz:


Auditoridada bo'ladimi, masofaviy o'qitish bo'ladimi, bu turli xil o'qitish usullari hozirgi kunda talabalarni o'qitishning turli xil yondashuvlarini topib, o'qishga

⁷ O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i, 17.07.2021 yildagi 0016-21-son

ko'proq jalb qilishlariga imkon berishdir. Masofaviy darslarni o'tkazish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ushbu samarali onlayn o'qitish usullarini quyida amaliy misollar vositasida ko'rib chiqamiz:



1. Taqdimotlar: Taqdimotlar, onlayn o'qitishning eng keng tarqalgan usullaridan biridir. Ushbu uslub o'qituvchining darslikdan ma'lumot berishdan ko'ra ko'pchiligi vizual o'quvchilar bo'lgan talabalarga sezilarli ta'sir ko'rsatishga yordam beradi. Eng muhimi, taqdimotlar sizga vizual tasvirlarni (ppt, canva, google slides va h.k.) o'z ichiga olish imkonini beradi, bu esa darsni yanada qiziqarli qilish bilan birga murakkab ma'lumot va ma'lumotlarni yetkazish va tushunishni osonlashtiradi. Misol uchun onlayn dasturlar; ppt, canva, google slides




2. Onlayn doskalar: Onlayn doskalar o'qituvchilar va talabalar o'rtasida bo'ladigan aktiv bog'liqlikni yaxshi ta'minlay oladigan usullardan biridir. . Undan turli diagrammalar va masalalar yechishda, oldindan tayyorlangan shablonlar, eskiz, matn terish vah. funksiyalari mavjud. An'anaviy doskalardan farqli o'laroq, ular sizga yaratilgan tarkibni raqamlashtirishga ham imkon beradi, va ularni qayta

ishlash imkonini yaratadi. Shuningdek, siz real vaqt rejimida o'quvchilar bilan bir xil vaqtda hamkorlik qilishingiz mumkin, bu esa topshiriqlarni bajarish, darslar jarayonidada aqliy hujum, aql xaritasini tuzish, viktorina kabi interfaol mashqlarni bajarish, uy vazifalarini ko'rib chiqish va fikr-mulohaza qoldirish imkonini beradigan dasturlardan biridir. Masalan; mindmeister , mind on map va online white board




MindOnMap

MindOnMap - bu aql xaritasining eng so'nggi, ammo eng qiziqarli usuli.



Mindmeister

MindMeister - bu o'z foydalanuvchilariga bulut orqali o'z fikrlarini tasavvur qilish, baham ko'rish va taqdim etish imkonini




Online WhiteBoard

Onlayn doska - bu o'qituvchilar va talabalar Internet orqali real vaqt rejimida yozishlari va talabalar bilan muloqot qilishlari mumkin bo'lgan o'quv


3. Jonli onlayn darslar (Zoom): Texnologiya talabalar bilan bir xonada bo'lmasangiz ham, ma'ruzalarni onlayn o'qishni osonlashtirdi, bu yuzma-yuz muloqotning ko'plab elementlarini takrorlaydi. Video konferensiya aloqa vositalaridan foydalanib, siz butun dunyo bo'ylab talabalar bilan bog'lanib, dars o'tishingiz mumkin. Ma'ruzalar odatda talabalarni passiv faoliyatga olib kelsa, onlayn doskani o'z ichiga olgan holda, siz darslarni yanada qiziqarli tashkillashtirishingiz mumkin. Misol tariqasida; Quizlet.com / Kahoot.com / WordWall.net. Bu dasturlar orqali o'tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash bilan birga, talabalarning bilim darajasini shu zahotiy oq aniq lab tahlil qilib berishi, talaba tomonidan ijobiy qabul qilinadi.



4. Loyiha asosida o'qitish: Bu usulda talabalar kurs materialiga mos keladigan loyiha ustida ishlaydilar. Ular kursda o'rganilgan tushunchalarni real muammoni hal qilish uchun qo'llashlari kutiladi. Bu usul, ayniqsa, ijodkorlik va innovatsiyani talab qiladigan fanlar uchun foydalidir. Quyidagi misolda talabalar turli online photo yoki video dasturlar orqali guruh asosida o'z loyihalarini tayyorlashlari mumkin: paint / canva yoki <https://padlet.com/> kabilar



Muhokama: Maktabgacha ta'lim sirtqi guruhlarda ta'lim olayotgan talabalarning dastlabki fanga oid bilimlarini hamda darslar davomida olgan bilimlarini Kahoot.com, WordWall dasturi orqali tahlil qilib chiqildi. Bunga ko'ra talabalarni dasturdan foydalana olish imkoniyatlari, hamda bilim darajalari o'rganildi.



Natijaga ko'ra, talabalar Wordwall dasturida test ishlashlari qulay hamda testni qayta tahlil qilish imkoniyati borligi sababli, darsdan tashqari holatda ham takror ishlay olganliklari uchun yaxshi natijalarga erisha olishdi. Faqat an'anaviy ma'ruza usulidan foydalangandan ko'ra, interaktiv usulda yuqoridagi dasturlardan foydalanib, onlayn darslar tashkillashtirilganda bir nazorat bilan ikkinchi nazorat oralig'ida talabalar bilimining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.

Bugungi kunda, *Think Impact*^[8] da aytilishicha, har qanday maktablar, o'qituvchilar va murabbiylar o'quvchilarni qiziqtirish va ko'proq jalb qilish uchun yangi normada innovatsion o'qitish strategiyalarini sinab ko'rishdi. Raqamli dasturlar esa ularga talabalarning ongiga kirishga yordam berdi va talabalarga darslarga yaxshiroq kirish imkonini berdi. Natijada:

2021 yilda barcha amerikalik talabalarning 57% raqamli vositalariga ega bo'ldi.

AQSh maktablarining 75 foizi to'liq virtual o'tishni rejalashtirgan bo'lib, ta'lim platformalari talabalar qurilmasidan foydalanishning 40 foizini egalladi.

Ta'lim maqsadlarida masofaviy boshqaruv ilovalaridan foydalanish 87 foizga oshdi. AQSHdagi maktab va universitetlarning 80 foizi talabalar uchun qo'shimcha texnologik vositalarni sotib olgan yoki sotib olishga intilgan va universitetlarning 98 foizida darslar onlayn o'qitilgan.

Ushbu statistika talablarning o'qitish va o'rganish usullarida katta o'zgarishlarni ko'rsatadi.

Shunday qilib, ta'limdagi masofaviy o'qitish usullarini qayta ko'rib chiqish vaqti kelganligini anglash mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, texnologiya butun pandemiya davrida o'qituvchilar va talabalarni bog'lash imkonini yaratib, o'qituvchilarga o'z bilimlarini xuddi bir sinfda bo'lgandek berishga imkon berdi. Unicef ma'lumotlariga ko'ra^[9], dunyo bo'ylab ro'yxatga olingan talabalarning taxminan

⁸ Source: *Think Impact*

⁹ <https://creately.com/blog/education/online-teaching-methods/>.

91 foizi COVID-19 tarqalishini to'xtatishga yordam berish maqsadida masofaviy ta'limga o'tishdi. Lekin vaziyat ta'lim tizimlari o'rtasidagi elektr energiyasi, qurilmalar, resurslar va internetdan foydalanish imkoniyati yo'qligi kabi ko'plab bo'shliqlarni ochib berishga ham imkoniyat yaratdi desak bo'ladi va bu nomutanosibliklarni innovatsion yechimlar bilan bartaraf etish choralarini ko'rishga olib keldi. Hozirga vaqtda masofaviy ta'lim butun dunyo bo'ylab ko'plab o'qituvchilar va talabalar uchun yangi odatiy holga aylanayotganligi, bu talabalar va o'qituvchilar uchun ham ancha qulayliklar yaratdi. Ta'lim sohasi shunchalik tez o'zgarmoqdaki, siz doimo zamonaviy texnologiyalarga moslashishingizga to'g'ri keladi.

REFERENCE:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.10.2022 yildagi 559-son
3. Qonunchilik palatasi tomonidan 2015-yil 15-iyulda qabul qilingan Senat tomonidan 2015-yil 6-avgustda ma'qullangan
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.11.2020 yildagi PQ-4887-son
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.05.2021 yildagi PQ-5124-son
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.07.2019 yildagi 626-son
7. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i, 17.07.2021 yildagi 0016-21-son
8. *Source: Think Impact*
9. <https://creately.com/blog/education/online-teaching-methods/>.

Qo'shimcha materiallar

- (1) Masofaviy ta'lim; <https://www.coursera.org/in/articles/distance-learning>
- (2) O'qituvchilar bilishi kerak bo'lgan asosiy onlayn ta'lim usullari | Maslahatlar bilan - Yaratgan. <https://creately.com/blog/education/online-teaching-methods/>.
- (3) Onlayn o'qitishning samarali usullarining yakuniy ro'yxati. <https://bing.com/search?q=online+teaching+methods>.
- (4) 2024 yil uchun 15 ta innovatsion o'qitish usullari (qo'llanma + misollar) - AhaSlides. <https://ahaslides.com/blog/15-innovative-teaching-methods/>.
- (5) Onlayn o'qitishning 9 ta strategiyasi - Pearson. <https://www.pearson.com/en-us/higher-education/insights-and-events/teaching-and-learning-blog/2020/03/9-strategies-for-effective-online-teaching.html>.
- (6) Onlayn ta'limni inqilob qiladigan 12 ta zamonaviy o'qitish usullari - LearnWorlds. <https://www.learnworlds.com/teaching-methods-online-education/>.